

«Kifayatu-N-Nahv Fi Ilmi-L-E'rāb» Asarida Muallif Nazariy Qarashlarining Dalillanish Prinsiplari

Jumaniyazov Mansur Davletbayev¹

Anotatsiya: Arab tili grammatikasining rivojlanishida Qur'ani karim katta ro'l o'ynadi. Chunki arab adabiy tilining ilk manbalari Qur'oni karim bo'ldi. Qur'oni karim arab adabiy tiliga asos bo'lib xizmat qildi. Olimlar tamonidan arab tili grammatikasiga oid asarlar yaratila boshlandi. Muhimi, nahvshunoslar grammatik qoidalarni asoslab ularni dalillashda Qur'oni karim matnidan va oyatlardan keng foydalandi. Biz tadqiq qilyotgan Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asari o'sha davr ruhi asosida yozilgan bo'lib, nahvshunoslar odatidek birinchi o'rinda grammatik qoidalarni asoslashda yoki inkor qilishda bosh manba sifatida Qur'oni karimdan keng foydalangan. Musannif o'z asarida 250 o'rinda Qur'oni karimdan dalillar keltirgan. Qur'oni karim bilan qoidalarni isbotlashda uni ikki qismga bo'lgan: (1) Qur'oni karimning to'liq matni yoki kichik oyatlar bilan qoidalarni isbotlash; (2) Qur'oni karimning qirotlari bilan asoslash. Qur'oni karim oyatlar bilan birga ba'zi muhim mavzularning grammatik hususiyatlarini ochib berishda hadisi shariflardan ham foydalangan. «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asarida o'n bir o'rinda hadisi shariflar qo'llanilgan. Qur'oni karim va hadisi shariflar turli hil mavzular ichida kelgan bo'lib, ularni barcha qoidalalar sharhida ko'rish mumkin. Maqolada so'zlarning kelishigi harakatlar va harflar bilan o'zgarishini, ega va kesim munosabatlari, fe'l kesim munosabatlari, moslashmagan aniqlovchi, izohlovchi va nisbiy olmosh mavzularidagi bahsli qoidalarni yoritishda ishlatilgan Qur'on oyatlari tahlilga tortildi.

Kalit so'zlar: Kelishigi harakatlar va harflar bilan o'zgarishini, ega va kesim munosabatlari, fe'l kesim munosabatlari, moslashmagan aniqlovchi, izohlovchi va nisbiy olmosh to'ldiruvchi, undalma.

Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asarida 250 o'rinda Qur'oni karimdan grammatik qoidalarni asoslashda foydalangan.

Kitobning nomi bilan bog'liq bo'lgan e'rob bobidan boshlaydigan bo'lsak, muallif so'zlarning kelishigi harakatlar va harflar bilan o'zgarishini ta'kidlaydi. Harakatlar bilan o'zgarishini qisqa tushuntirib harflar bilan o'zgarishini quyidagicha sharhlaydi: الاختلاف بالحروف في ثلاثة مواضع: أحدها: الأسماء الستة إذا كانت مضافة إلى غير ياء المتكلّم. هي: أبوه، و أخيه، و حموه، و هنوه، و فوه، و ذوماً.

«Uchta o'rinda so'zlarning e'robi harflar bilan o'zgaradi. Ulardan biri oltita so'z. Bu so'zlar birinchi shaxs birlik olmashidan boshqasiga izofa bo'lsa quydagicha bo'ladi: *uning otasi, uning qaynotasi, uning akasi, uning azosi, uning og'zi va mol egasi»*

Bu so'zlarning uchta kelishikda harflar bilan o'zgarishiga Qur'ondan quydagi dalillarni keltiradi: وجاءوا أباهم عشاءَ * «U ikkisining otasi solih edi»[Kahf:72]. Ushbu oyatda bosh kelishik, * كان أبوهما صالحًا * إذ قال يوسف لأبيه * «Ular otalarininng oldiga yig'lab keldi»[Yusuf:16]; bu yerda tushim kelishigi, * يكُون «Yusuf otasiga aytganda» [Yusuf:4]; oxirgi oyat qaratqich kelishigiga isbot sifatida keltirilgan.

Olim taqdim qilgan grammatik qoidalarni avval oddiy gaplar bilan, keyin oyatlar bilan tasdiqlagan. «Mufassal», «Unmuzaj» va «Kofiya» asarlarida bu harakatlar bilan kelishikda o'zgaradigan oltita ismga Qur'ondan misollar keltirilmagan. «Shavahid Qur'on» kitobida bu ismlar beshta ekanligini ta'kidlab, quydagi oyatlarni keltiradi: *إذ قالوا ليوسف و أخيه أحب إلى أبينا منا و نحن عصبة إن أبانا لفى ضلال مبين*: «O'shanda ular aytishdi: Yusuf va uning ukasi otamizga bizdan ko'ra mahbubroq, holbuki, biz ko'pchilikmiz. Otamiz ochiq-oydin adashuvda»[Yusuf:8].

¹ TDSHU tayanch doktoranti



Olim bir oyat bilan uchta kelishikni isbotlagan. «أُخوه «uning akasi» so‘zidagi harfi bosh kelishik alomati، أَبِيَنَا «bizning otamiz» so‘zidagi يَهُوَهُ harfi qaratqich kelishi alomati، أَبِيَنَا، «otamiz» so‘zidagi يَهُوَهُ harfi tushim kelishigiga dalolat qiladi.² Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy uchta kelishikka oyatlardan alohida misollar keltirishi har bir qoidaga alohida nazar bilan qarab, uning o‘quvchiga tushunarli bo‘lishini ta’minlagan.

Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy e’rob mavzusini davom ettirib, ismlarni uch kelishikda turlanishiga monelik qiluvchi sabablarni to‘qqiz turga bo‘ladi. Ulardan birini «الجمع السيني» *siniq ko‘plikdagi ismlar* deb, quydagи qoidani keltiradi: إن كان آخر الحرفين ياء حذفها في الرفع والجر ونوبت الاسم.. «Biz unda yuksak tog‘larni qildik» [Mursalat:27]. Bu oyatda «choyshablar» so‘zi bosh va qaratqich kelishigida tanvinga o‘zgartirasan»³. Bu o‘zgarishni isbotlash uchun Qur’ondan oyatlar keltirad: «من فرقهم غواشْ» *غواشْ* «ustlariga choyshablar bor» [A’rof:41]. Bu oyatda «choyshablar» so‘zi bosh va qaratqich kelishigida tanvin kasraga tugagan. Tushim kelishigida qanday o‘zgarishiga dalil sifatida quyidagi oyatni keltiradi: *«جعلنا فيها رواسيَ» **جعلنا فيها رواسيَ* «Biz unda yuksak tog‘larni qildik» [Mursalat:27]. Bu oyatda «tog‘larni» so‘zi tanvin fatha o‘rniga fatha bilan tushim kelishigida kelgan. «Qatru-n-Nada» kitobida illatli harflarsiz bo‘lgan siniq ko‘plikdagi ismlarga oyatlardan dalillar keltiradi.⁴ «Ular una mehroblar va haykallardan xohlaganini qilib berishar edi» [Saba’:13]. Ibn Hishom bu oyat bilan ko‘rinishi tushim kelishigida ma’nosи qaratqich kelishigida kelgan ismlarni ikki kelishikli ismlar ekanligini dalillaydi. Misollardan ko‘rinib turibdiki Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy ko‘p tafsilotga kirishmay, oxiri ياء -ga tugagan ko‘plikdagi ismlarga oyatlardan misollar keltirib, boshqasini tark qilgan. Chunki o‘quvchi bu qiyinroq qoidani tushunsa, boshqasini misollarsiz o‘zlashtira oladi.

O‘zbek tilida fe’l-kesimli gapda fe’ldagi ish-harakatni amalga oshiruvchi otni ega deyilsa, arab tilida grammatikasida u foil deb ataladi. Muallif foil mavzusini yoritishda ham oyatlardan uddabironlik bilan foydalangan. قد يجيء الفاعل و رافعه مضمر * «ba’zida foilning fe’li tushib qoladi».⁵ Bu qoidaga misol qilib mazkur oyatni keltiradi: *يسبح له فيها بالغدو و الأصل 37 رجال *37 رجال* «Ularda uni ertayu kech poklab yod etarlar, kishilar» [Nur:36-37]. Alloma bu oyatda foilning fe’li xisoblangan «poklab yod etadi» fe’li yashiringanligini ta’kidlaydi. Shunda jumlaning davomi «Kishilar uni poklab yod etadi» ko‘rinishida bo‘ladi. Shu oyatni «Mufassal» kitobida ham xuddi shu uslubda taqdim qilingan. Lekin Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy boshqa uzun oyat bilan ham bu qoidani dalillaydi.

Foil mavzusiga uzviy bog‘liq bo‘lgan mutbado va xabar mavzusi doim foil bobidan keyin keladi. Chunki ikkala mavzu bosh kelishikdagi ismlar qismida o‘rganiladi. Alloma mutbado bobida birinchi faslni qoida va uning dalili oyat bilan boshlaydi: من حق المبدأ أن يكون معرفة وقد يجيء نكرة إذا كان في الكلام نوع فائدة «Mubtadoning sharti aniq holatda bo‘lishidir. Ba’zida gapda fikrni ifodalashning biror turi bo‘lsa, noaniq holatda keladi»⁶ «Mo‘min qul mushrikdan yaxshidir» [Baqara:221]. Olim bu oyatda عبد «qul» noaniq holatdagi so‘zini mutbado, مؤمن «mo‘min» so‘zi uning moslashgan aniqlovchisi, خير «yaxshi» so‘zi mubtadoning xabari deb grammatic tahlil qiladi.

«Sharhi-Tashil» kitobida ham bu oyat keltirilib, quyidagicha tushuntirilgan: «ba’zi holatlarda mutbado va xabar ikkalasi ham biror ifodanining sharti bilan noaniq holatda keladi»⁷ deb, oyatni mutbado va xabarning noaniq holatda kelishiga isbot sifatida keltirgan. Farqli jihatni Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy mubtadoning har bir turini alohida sharhlaydi. Bu mavzuni to‘liq bayon qilgandan keyin, xabarni tushuntirishga o‘tadi. Biror qoidaga dalil keltirilsa, uni grammatic tahlil qiladi.

²الدكتور هانى توفيق أسعد نصر الله. شواهد القرآن النحوية. أبوظبي المكتبة الوطنية. 2010. صفحة 781

³Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb» 10518-raqam ostida saqlanadi.

⁴أبو محمد عبدالله بن عبد جمال الدين ابن هشام. قطر الندى بيروت، لبنان. دار الكتب العلمية. 2004م. صفحة 419

⁵Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb» 10518-raqam ostida saqlanadi.

⁶Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb» 10518-raqam ostida saqlanadi.

⁷جمال الدين محمد بن عبد الله بن عبد الله الطائي الحياني الأندلسي. شرح تسهيل، تحقيق الدكتور عبد الرحمن السيد والدكتور محمد بدوي المختون. القاهرة، مصر. 1990. الجزء الأول، صفحه 406.



Mubtado mavzusining sharhidan keyin xabar mavzusi keladi. Olim unda xabarning gapdag'i xususiyatlarini bayon qilar ekan, quyidagi qoidani keltiradi: «Xabar mubtadodan oldin kelishi ham mumkin». Alloma bu qoidaga misol sifatida mazkur oyatni keltiradi: *سواء محياهم و مماتهم* «Ularning hayotlari ham, mamotlari ham barobar». Bu oyatda so'zi xabar bo'lib, mubtadodan oldin kelgan [Josiya:21]. Muallif bu mavzuni davom ettirib, keyingi qoidalarni zikr qilib, mubtado yoki xabarning gapda tushib qolishini bayon qiladi: *يجوز حذف أحدهما عند الدلاله* «Mubtado yoki xabar gapda unga dalolat qiladigan so'z bo'lsa, tushib qolishi mumkin»⁸ deb oyatni keltiradi: *متاع قليل* «ozgina mato» [Oli Imron:197]. Alloma bu oyatda «anavu» ko'rsatish olmoshi tushib qolgan bo'lib, u mubtado ekanligini ta'kidlaydi. Keyingi oyat ham shunga o'xshash: *أفأتبئكم بشر من ذلك النار* «Buningizdan ham yomonroq narsaning xabarini beraymi? Do'zahdir» [Haj:72]. Musannif bu oyatda mubtado tushib qolganligini bayon qiladi. Mubtado هي «u» kishilik olmoshi xisoblanadi. Jumla mubtado bilan tarjima qilinganda; u do'zahdir, degan ma'noni ifoda qiladi. Oxirgi oyat quydagicha: *صبر جميل* «chiroysi sabr» [Yusuf:18]. Alloma oyatdagi tushirib qoldirilgan يتحمل أمرين إما أن يكون المبتدأ محفوظاً فالتقدير: فأمرى صبر جميل، أو يكون الخبر محفوظاً، أي: صبر جميل أجمل. «Bu oyatda ikki hil qarash bor. Birinchi: mubtado tushib qolgan bo'lishi mumkin. Shunda jumla: "ishim chiroysi sabrdir" ko'rinishida bo'ladi. Ikkinci: xabar tushib qolgan bo'lishi mumkin. Jumla quydagicha bo'ladi: "Chiroysi sabr eng yaxshisidir».

Mahmud Zamaxshariyning «Mufassal»⁹ va «Unmuzaj»¹⁰ asarida ham ega va kesimning tushib qolishi qoidasiga mazkur oyatni misol qilib keltirilgan. Biroq «Unmuzaj»da tushirib qoldirilgan so'z zikr qilinmagan. Ibn Yaish oyatdagi tushirib qoldirilgan xabarni اجمل من غيره أو عندي «Undan boshqasidan yaxshiroq, menda bor»¹¹ so'zleri ekanligini ta'kidlaydi. Shunda jumlaning to'liq ma'nosi: "Chiroysi sabr undan boshqasidan yaxshiroq yoki menda chiroysi sabr bor" ko'rinishida bo'ladi.

«Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asaridagi mubtado va xabarning tushib qolish qoidasi oyatlar bilan dalillashda o'zgacha uslubdan foydalangan. Avval ikkita so'zdan iborat oyat bilan ko'rsatish olmoshi mubtadoning tushib qolishini bayon qiladi. Keyingi oyatda kishilik olmoshi mubtadoning tushib qolishi qoidasini yoritadi. Bu oyat birinchisidan uzun bo'lib, oldingi o'xshashlikni takrorlamaydi, ya'ni olim so'roq gapli oyatni tanlash bilan va u yerdagi do'zah zikri bilan o'rganuvchining diqqatini jalb qilishga harakat qilgan. Oxirgi oyatda umumiyo mubtado yoki xabarning tushib qolish qonuniyatini asoslaydi. Ko'p nahv kitoblarida oxirgi oyat zikr qilingan. Lekin uni mazkur qoidaga umumiyo isbot sifatida keltirilgan. Ziyovuddin Makkiy Xorazmiy esa qoidaga uzviylik asosida alohida-alohida oyatlardan dalillar keltirgan.

Arab tilida qaratqich kelishigidagi ismlar izofa-moslasmagan aniqlovchi mavzusidan boshlanadi. Alloma izofa mavzusini yoritar ekan, izofani ikki turga لفظي «lafziy» va «ma'naviy»ga bo'ladi. «Ma'naviy izofa aniqlashtirish xoslik, tegishlilik ma'nolarini ifoda qiladi».¹² Ma'naviy izofaga oddiy birikmalarni misol qilib keltirib, quyidagi oyat bilan qoidani mustahkamlaydi: أرض الله واسعة* «Allohning yeri keng» [Zumar:10]. Bu yerda so'zi izofa birikmasi bo'lib kelyapti.

الإضافة اللغوية: هي التي توجد صورته لأجل التخفيف و المعنى على الإضافة الانفصالية و هي إضافة الفاعل إلى مفعوله. Alloma lafziy izofani quydagicha tushuntiradi: «lafziy izofa so'zni tilga yengillatish uchun qo'llanadi va u foilning o'z maf'uliga izofa bo'lishidir. Bunda ot va sifat bir-biriga izofa bo'ladi» deb, unga oyatdan dalil keltiradi: الكعبة *هديا بالغ الكعبة* «U Ka'baga yetib borguvchi hadya bo'lib» [Maida:95]. Bu oyatda «Ka'ba» so'zi ot bo'lib «yetib borguvchi» sifatga izofa bo'lyapti. Olim izofa mavzusida ham o'zgacha uslubda ishlaydi. Boshqa nahvshunoslardan farqli ravishda الحقيقة معنوي «ma'naviy» izofani «haqiqiy» غير الحقيقة لفظي izofani ، lafziy bo'limgan» izofa deb ham ishlataadi. Haqiqiy

⁸ Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» 10518-raqam ostida saqlanadi.

أبي القاسم محمود بن عمر الزمخشري. تحقيق فخر صالح قدارة. المفصل في علم العربية دار عمار -الأردن. 2003.صفحة 565
شرح الأنموذج في النحو للعلامة الزمخشري بشرح الأرديبيلى جمال الدين محمد بن عبد لغنى. حققه وعلق عليه دكتور حسني عبد الجليل يوسف. مكتبة الآداب - بالقاهرة. 1999.صفحة 230

العلامة ابن يعيش.شرح المفصل في صنعة الإعراب.إدارة الطباعة المنيرية. بمصر. ص 132¹¹

¹² Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» 10518-raqam ostida saqlanadi.



إضافةً إلى الفاعل المفعول إنما تكون غير حقيقة إذا أريد به الحال أو الاستقبال، فاما إذا أريد به الزمان الماضي أو زمان مستمر غير o'talgan bilan izofa bo'lib, hozirgi yoki kelasi zamonga dalolat qilsa, haqiqiy bo'lmagan izofa bo'ladi. Agar o'tgan zamon yoki muayyan vaqt belgilanmagan davom etuvchi zamon iroda qilinsa, haqiqiy izofa bo'ladi» deb, oyatlardan dalillar keltiradi. *«Hamdu sano osmonlar va yerni yaratguvchi Alloh uchundir» [Fotir:1]. Alloma bu oyatni quyidagicha tahlil qiladi: السموات فاطر الله الحمد «Hamdu sano osmonlar va yerni yaratguvchi» o'tgan zamonga dalolat qilib, haqiqiy izofa xisoblanadi. Bu birikma Alloh so'ziga sifat bo'lib kelyapti. Muallif bu qoidalarni mufassal tushuntirish uchun yana oyatlardan misollar keltirishda davom etadi: «gunohni mag'firat qiluvchi, tavbani qabul qiluvchi, azobi qattiq Zotdir» [G'ofur:3]. Olim «mag'firat qiluvchi» so'zida muayyan zamon iroda qilinmaganligi sababli, bu izofa haqiqiy izofa xisoblanadi, deydi. Qolganlari Alloh so'ziga sifat bo'lib kelgan. Ularning boshqa ko'rinishlari deb, yana Qur'onidan oyatlar keltirilgan: *«Din - jazo kunining egasi» [Fatiha:3]. Bu oyatdagi birikma ham Alloh so'ziga sifat bo'lyapti. *«العالمين رب الله الحمد» «Hamdu sano olamlarning Parvardigori bo'lmish Alloh uchundir» [Fatiha:1]. Bu oyatda ham "olamlarning Parvardigori" so'zi Alloh so'ziga sifat Bo'lyapdi. Alloma haqiqiy izofa qoidasini tushuntirishda to'rtta oyatdan foydalanadi. Bu boshqa qoidalarni tushuntirishdagi oyatlarning berilishidan nisbatan KO'proq. Chunki o'rganuvchi bu qoidalarni yaxshi bilmasa, misollarda keltirilgan birikmalarga haqiqiy izofa nuqtai nazardan e'roblarini qo'ymasa, Allohnning sifatlarini tarjima qilishda yoki fahmlashda xatoga yo'l qo'yishi mumkin. Bundan tashqari, Arab tilida sifat sifatlanmish kelishigida bo'ladi. Misollarning Qur'ni karimning barcha musulmon ahlining ongu shuurida Bo'lган fotiha surasidan olinishi qoidani eslab qolishni yanada osonlashtiradi. Olimning bir oyatni ikki o'rinda qo'llaganining ham guvohi Bo'ldik.

Biz oldingi qoidada Moida surasining 95- oyati keltirilganligini ko'rgan edik. Haqiqiy izofaning oxirida bu oyatni yana uchratishimiz mumkin: *هديا بالغ الكعبة«U Ka'baga yetib borguvchi hadya bo'lib» [Maida:95]. Bu oyatni keltirar ekan, uni quyidagicha ko'rib chiqadi: أي: يبلغ لما كان معنى قوله تعالى: أي: يبلغ «Ka'baga yetib borguvchi» so'zi «Ka'baga yetib boradi» ma'nosida bo'lsa, haqiqiy bo'lmagan izofa bo'ladi. Hamda yetib borguvchi» so'zi هديا بالغ يومن يوم مالك. «Din - jazo kunining egasi» [Fatiha:3].

Doktor Muhammad Ahmad bu oyatdagi dalilning mavzusini quydagicha tushuntiradi. (بالع) حيث جاءت الصفة مضافه و الموصوف نكرة. وإنما جاز ذلك لأن الإضافة غير محضة نية التتوين واضحة فيها (بالغا الكعبه) «yetib boruvchi» sifat muzof bo'lib kelgan va sifatlanmish noaniq holatdagi ot. Bu qoida joizdir. Chunki bu gapdag'i moslashmagan aniqlovchi haqiqiy bo'lmagan izofadir. Tilga engillatish uchun izofa qilingan. Asli shakli bo'lib, izofa sababidan 'nun' tushirib qoldirilgan». ¹⁴Alloma bu oyatni tanlashining sababi bu oyat haqiqiy izofa bo'lmagan izofaning ikki shartiga ham mos keladi. Ikkita qoidaga bitta oyat bilan misol keltirishga erishgan. Buning tasdig'ini «al-Haava» nomli tafsir kitobida ham ko'rishimiz mumkin. Jumladan, unda shunday deyiladi. * وذلك إذا كان المضاف اسم فاعل أو اسم مفعول أو صفة يترك الموصوف و تقام الصفة مقامه إذا كان أمره يعني عن ذكره.. gapda sifat sifatlanmishning vazifasini bajarib uni zikr qilishdan behojat qilsa sifatlanmish ot tushib qoladi. Sifat uning o'rnnini egallaydi». ¹⁶Alloma bu qoidani tasdiqlashga oddiy jumlalarni keltirmasdan to'g'ridan to'g'ri oyatdan dalil keltiradi; ¹⁵«agar muzof aniq nisbat sifatdosh, majhul nisbat sifatdosh, haqiqiy sifat va hozirgi kelasi zamon fe'lining ma'nosidagi ism bo'lsa bu birikma xozirgi va kelasi zamonga dalolat qiladi» deb, mazkur oyatni misol qilib keltiradi.

Biz izofa mavzusida izofa birikmasining ot sifat ko'rinishida kelishini ko'rdik. Endi shu mavzuning davomi o'laroq tobening turlaridan biri xisoblangan sifat mavzusiga etibor beradigan bo'lsak olim quydag'i malumotlarni taqdim qiladi..

الشيخ عبد الرحمن بن محمد القماش، الحاوي في التفسير، رئيس الخيمة ، دولة الإمارات العربية المتحدة ، المكتبة الشاملة، المجلد الثاني عشر، 2012، صفحة 7163.

«يترك الموصوف و تقام الصفة مقامه إذا كان أمره يعني عن ذكره..

Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» 10518-raqam ostida saqlanadi.

¹³ Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» 10518-raqam ostida saqlanadi.

¹⁴ الدكتور محمد أحمد قاسم، إعراب الشواهد القرآنية، المكتبة العصرية، بيروت- لبنان، 2003م.ص218

¹⁵ الشيخ عبد الرحمن بن محمد القماش، الحاوي في التفسير، رئيس الخيمة ، دولة الإمارات العربية المتحدة ، المكتبة الشاملة، المجلد الثاني عشر، 2012، صفحة 7163.

¹⁶Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» 10518-raqam ostida saqlanadi.



ко'злар бор» [Soffot:48]. Бу оятда «ayollar» со'зи тушеб qolgan bo'lib uning vazifasini ayol jinsidagi «ko'zlarini tiyuguvchilar» sifati bajaryapti. Shunda jumlaning to'liq ko'rinishi; ularning oldilarida ko'zlarini tiyuguvchi ayollar bor-shaklida bo'ladi. Qosim bin Huasyn Xorazmiy bu оятning ma'nosini boshqa shaklda bayon qiladi. أن قاصرات الطرف عين لا يكن إلا حوراً أو نحوهن. «ko'zni tiyuguvchilar so'zi hurlar va ularning o'xshashlaridan boshqa narsa bo'lmaydi»¹⁷ deb, ta'kid bilan keltiradi. Ibn Yaish ham ko'zni tiyuguvchilardan murod hurlar ekanligini ta'kidlaydi.¹⁸ Ammo Mahmud Zamaxshariy Rahmon surasining 56-oyatidagi «ko'zni tiyuguvchilar»birikmasining sharhida «ayollar»so'zini qo'llaydi.¹⁹Ziyoviddin Makkiy Xorazmiyning ustozlaridan bo'lgan Imom Nasafiy ham bu оятни Zamaxshariy kabi sharhlagan.²⁰ Ikki buyuk olimning shogirdi bo'lib ularning qarashlariga ergashishi tabiy holat bo'lib, alloma qoidalarni оятlar misolida ko'rib chiqqanida nahvshunoslarning uslubidan og'ishmagan holatda mufassir ulamolarning ham fikrlarini o'z asariga kiritgan.

Sifat bobidan keyin olim باب البدل «izohlovchi bobini» keltiradi. Chunki sifat va izohlovchi bir biriga o'xshash bo'lib bitta mavzu tobalar mavzusida o'rganiladi. Izohlovchi mavzusi murakkab mavzu bo'lib izohlovchi izohlanmishning kelishigida bo'lib turli xil ko'rinishda bo'ladi. Alloma izohlovchi mavzusini to'g'ri uning turlaridan boshlaydi. البدل على أربعة أضرب: أحدها بدل الكل من الكل izohlovchi to'rt turga bo'linadi; 1. Butunni ifodalovchi badalga misol qilib mazkur oyatni keltiradi. ²¹ اهدا الصراط المستقيم صراط الذين أنعمت عليهم * «Bizni to'g'ri yo'lga hidoyat qil. O'zing nemat bergenlarning yo'liga»[Fotiha:6-7]. Alloma bu oyatdagi «bergenlarning yo'liga» birikmasi «صراط الذين يرشدكم» الصراط المستقيم «to'g'ri yo'lga» oyatini izohlab beryapdi, deydi. Badalning bu turini yoritishda bitta oyat bilan cheklangan. Badalning ikkinchi turiga oyatlardan birorta misol keltirilmagan. Uchunchi badalni بدل الإشتمال «qamrovni ifoda qiluvchi badal» deb ataydi. Bu izohlovchiga misol sifatida ba'zi jumlalarni keltirib Qur'on oyatlariga o'tadi. ²² قتل أصحاب الأخدود ، النار ذات الوقود * «Uhdud egalariga la'nat bo'lzin. U yo'qilg'isi ko'p olovdir»[Buruj:4-5]. Oyatdagi qamrovchi badalni quydagicha ko'rsatadi. ²³ يسألون عن الشهر الحرام قتال فيه قل قتال فيه «Uhdud» so'zini izohlab kelyapti. «Uhdud» so'zini «qamrovni ifoda qiluvchi badal» xisoblanadi. Chunki u olov so'zini qamrab olyapti. Qoidani yanada mustahkamlash uchun keyingi oyatni taqdim qiladi. ²⁴ «Sendan harom oyida urish qilish haqida so'raydilar. Ayting: unda urish qilish..» [Baqara:217]. Bu oyatda «urish qilish» so'zi «harom oyida» oyatini izohlab kelyapti. Bu izohlovchi qamrovchi izohlovchi xisoblanadi. Chunki bu erdag'i zamon uning ichidagi voqelikni qamrab olyapti. Badalning to'rtinchi turiga oyatlardan misollar keltirmagan. Etibor beradigan bo'lsak olim hamma qoidalarda ham oyatlarni keltirmagan. Faqat katta mavzularda murakkab qoidalarni dalillashda yoki inkor qilishda olimning maqsadidan kelib chiqib grammatik masalalarning tushunchasini osonlashtirish uchun keltirgan. «Qatru-n-Nada» kitobida bu masalaga boshqacha yondashib, quydagicha tahlil qiladi. بدل الإشتمال: ضابطها أن يكون بين الأول و الثاني ملاسة بغية جزئية. «qamrovni ifoda qiluvchi badalning qoidasi birinchi va ikkinchi so'z orasida juziy bo'limgan bog'lanish bo'lishi kerak» deb, mazkur oyatni keltiradi. ²⁵Uni quydagicha sharhlaydi. قاتل مختلفين مثل: الشهر و قتال الشهرين oy so'zi aniq holatda قاتل الشهرين oy so'zi aniq holatda bo'ladi. Masalan; Kashshof tafsirida bu oyat quydagicha tahlil qiladi. ²⁶ الحرام صفة harom so'zi sifat, قاتل الشهرين oy so'zi aniq holatda bo'ladi. Misollardan ko'rinih turibdiki bu oyatning tahlilida «Qatru-n-Nada» kitobida asosan izohlovchining aniq yoki noaniq holatda kelishiga etibor bergan bo'lsa «Kifayatu-n-nahv fi

¹⁷ مصدر الأفضل القاسم بن حسين خوارزمي، تحقيق الدكتور عبد الرحمن بن سليمان العثيمين، شرح المفصل في صنعة الإعراب بالتحميم، الجزء الثاني، دار الغرب الإسلامي، بيروت لبنان، 1990م، صفحة 432.

¹⁸ العلامة ابن عييش.شرح المفصل في صنعة الإعراب.إدارة الطباعة المنيرية بمصر.ص 132

¹⁹ العلامة جار الله أبي القاسم محمود بن عمر الزمخشري، تحقيق الشیخ عادل أحمد عبد الموجود، الكشاف عن مقاييس غرائب التنزيل وعيون الأفلاك في وجوه التأویل،الجزء السادس،مكتبة العبيكان،الرياض،1998م،صفحة 626

²⁰ أبو البركات عبد الله بن أحمد بن محمود النسفي، تحقيق يوسف على بيدوي، مدارك التنزيل وحقائق التأول، الجزء الثالث، دار الكلم الطيب، بيروت، 1998م.

²¹ Ziyovuddin Makkii Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» 10518-raqam ostida saqlanadi

²² أبو محمد عبدالله بن جمال الدين ابن هشام. قطر الذى بيروت، لبنان. دار الكتب العلمية. 2004م. صفحة 419

²³العلامة جار الله أبي القاسم محمود بن عمر الزمخشري، تحقيق الشيخ عادل أحمد عبد الموجود، الكشاف عن حقائق غواصات التنزيل وعيون الأقوابيل في وجوه التأويل، الجزء السادس، مكتبة العبيكان، الرياض، 1998م، صفحة 626.



ilmi-l-e'rāb» asarida va «Kashshof» tafsiridagi qarashlarda izohlovchi va izolan mishning gapdag'i o'rniga vazifasiga etibor qaratgan.

Arab tilida bosh gapning belgisini bildirish uchun **الذى، الذى**, **nisbiy olmoshlari ishlatiladi**. O'zbek tilida bunday iboralar kengaytirilgan sifatdosh yordamida ifodalanadi. Bizning tadqiqot manbamiz xisoblangan «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asarida bu mavzu chuqur o'rganilgan bo'lib ko'plab fasllarni o'z ichiga oladi. Etiborlisi alloma bu mavzudagi qoidalarni isbotlash va tushuntirish uchun oyatlardan ko'proq foydalangan. Buni o'rganish jarayonida guvohi bo'lamic. **منها: (الذى) للذكر، و (اللذان)**, **لما شاه فى حال الرفع،** «bosch kelishik holatida nisbiy olmoshlardan erkak jinsiga الذى ikkilik jinsiga nisbatan ishlatiladi». ²⁴ Qur'onidan quydagi oyatlar keltirilgan ***واللذان يأتيانها منكم** «Sizlardan o'shani qilgan ikki erkakka» [Niso:16]. Bu oyatda nisbiy olmoshi ikkilik muzakkarr shaklda bosh kelishikda qo'llanilyapti. Uning tushim va qaratqich kelishigidagi shakli quydagicha. **(الذين) فى حال النصب و الجر** «nisbiy olmoshning ikkilik muzakkarr shakli tushim va qaratqich kelishigida (الذين) ko'rinishida bo'ladi». Qur'oni Karimdan misol: ***ربنا أرنا الذين أصلانا من الجن والإنس** «Robbimiz, bizni adashtirgan jin va insdan bo'lgan kimsalarni bizlarga ko'rsatgin» [Fussilat:29]. Bu oyatda nisbiy olmoshi tushim kelishigida kelgan bo'lib, ikkilik songa dalolat qiladi. Ko'plik shaklining qoidasi quydagicha. **و يحذف النون من المثنى و المجموع** **(الذين)** shaklida bo'lib, gapda ikkilik va ko'plik shaklining oxiridagi “nun” harfi tushib qoladi». Qur'oni Karimdan misol: ***و خضتم كالذى خاضوا** «Ular sho'ng'igandek, siz ham sho'ng'idingiz» [Tavba:69]. Oyatdagi nisbiy olmoshida ko'plikka dalolat qilib “nun” tushib qoldirilgan. To'liq ko'rinishi shaklida bo'ladi. Bu oyatni Yunus, Al-Farro va Ibn Moliklar masdar ish harakat ma'nosini bergen. **أي كخوضهم** Bunda nisbiy olmoshi tushirib qoldirilib tarjima qilinadi- ularning sho'ng'ishi kabi ma'nosida bo'ladi. Ko'pchilik ulamolar buni rad qilib, ko'plik nisbiy olmosh ma'nosida tavil qiladi.²⁵ «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asarida bu oyatning sharhida ko'pchilik ulamolarning qarashlariga ergashkanligini ko'rishimiz mumkin. Nisbiy olmoshning ayol jinsiga dalolat qiluvchi و (الذى) فى المؤنث، و (اللذان) لمثنى و لمجموعه: (اللاتي و اللاتي) shaklida bo'lib, u ham kelishiklarda o'zgaradi. Ko'plik ulamolar buni rad qilib, ko'plik nisbiy olmosh ma'nosida tavil qiladi.²⁶ Qur'oni Karimdan misol: *** و اللاتي يأتين الفاحشة** «Fahsh ish qilganlar» [Niso:15] nisbiy olmoshi ko'plikdagi muannas jinsiga dalolat qiladi. Nisbiy olmoshning boshqa shakllarini ham bo'lib ular turli hil ko'rinishda keladi. **«nisbiy olmoshning منها: الألف و اللام بمعنى: الذى، إن المصدقة و المصدقات** «nisbiy olmoshning keyingi turlari ma'nosidagi ما من، ما من بمعنى الذى harflaridir». Qur'oni Karimdan misol: *** لَا أَعْبُد مَا تَعْبُدُونَ** «Men sizlar ibodat qilayotgan narsalarga ibodat qilmasman» [Kofirun:2]. Bu oyat ma'nosidagi ما ga misol bo'lyapti. *** كذلك نجزي من شكر** **Shukur** qilganlarni shunday mukofotlaymiz» [Qamar:35]. Bu oyat ma'nosidagi ما ga misol bo'lyapti.

الذى يسألونك ماذا ينفقون قل العفو * «Sendan nimani infoq qilishni so'rарлар» [Baqara:219]. Bu oyat ma'nosidagi ما ga misol bo'lyapti. Oyatdagi savolning javobi haqida olim ikki hil qarashni ilgari suradi. 1. bu shaklda javobi bosh kelishikda bo'ladi **العفو ماذا** 2.agar so'roq olmosh ma'nosida bo'lsa javob tushim kelishigida bo'ladi **العفو ماذا** ning ما'nosini Sibavayh tasdiqlamagan bo'lsa ham shaklini qobul qilgan. Zamaxshariy esa ikki hil ma'noda tahlil qiladi bu esa Ziyoviddin Makkii Xorazmiyning qarashlari bilan bir hil. Ko'rib turganimizdek, «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asarida berilgan barcha tahlillar boshqa asarlar bilan qiyosan bajarilgan.

عرفت **أيهم أفضل**, وهي في هذا الوجه مبنية على الضم عند سبيوبيه إذا جاءت صلتها ناقصة كما **كمن** **“kimsa kabi”** **ma'nosida**. Alloma bu qoidani quydagicha tahlil qiladi. **أي** **وأي** **من** **في وجهها** رأيت؛ لأن التقير: **أيهم هو أفضل**,

²⁴ Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» 10518-raqam ostida saqlanadi إمام جلال الدين السيوطي، همع الهوامع، الدكتور عبدالعال سالم مكرم، الجزء الأول، مؤسسة الرسالة بالكويت، 2010م، ص358

²⁵ Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» 10518-raqam ostida saqlanadi



nisbiy olmoshi noqis bo'lganida Sibavayh nazdida bosh kelishikda o'zgarmas bo'ladi. Jumlaning asl ko'rinishi; “أَيُّهُمْ هُوَ أَفْضَلُ” ularning qay biri u eng avzal” ma'nosida bo'ladi²⁷ Qur'oni karimdan misol: «* ثُمَّ لَتَنْزَعُنَّ مِنْ كُلِّ شَيْءٍ إِيَّهُمْ أَشَدُ عَلَى الرَّحْمَنِ عَتِيَا» So'g'ra har bir guruuhdan qay bir kimsa Rohmanga qattiqroq osiy bo'lgan bo'lsa,(o'shani) sug'urib olurmiz»[Maryam:69]. Alloma bu oyatni qoidalarning umumiy yoritilishidan kelib chiqib sharh qilmagan. Anbariy bu oyatda quydagi tavilni ilgari suradi. أي «so'z tartibi: u qattiqroq-shaklida bo'lib, هو egasi tushib qolgan».²⁸ «Kofiya»ning sharhida ham bu fikrni qo'llaydi. Anbariy so'zini davom ettirib, shunday deydi. Nahvshunoslar bu turdag'i so'zning kelishigida ixtilof qilishgan Sibavayh bosh kelishikka o'zgarmas degan. Chunki aniqlavchi ergash gapda ega tushub qolganda jumla noqis bo'lib harakati o'zgarmas bo'ladi.

Xulosa

Arab tili grammatikasining rivojlanishida Qur’ani karim katta ro’l o’ynadi. Chunki arab adabiy tilining ilk manbalari Qur’oni karim bo’ldi. Qur’oni karim arab adabiy tiliga asos bo’lib xizmat qildi. Olimlar tamonidan arab tili grammatikasiga oid asarlar yaratila boshlandi. Muhimi, nahvshunoslar grammatik qoidalarni asoslab ularni dalillashda Qur’oni karim matnidan va oyatlardan keng foydalandi. Biz tadqiq qilyotgan Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb» asari o’sha davr ruhi asosida yozilgan bo’lib, nahvshunoslar odatidek birinchi o'rinda grammatik qoidalarni asoslashda yoki inkor qilishda bosh manba sifatida Qur’oni karimdan keng foydalangan. Musannif o’z asarida 250 o'rinda Qur’oni karimdan dalillar keltirgan. Qur’oni karim bilan qoidalarni isbotlashda uni ikki qismga bo’lgan: (1) Qur’oni karimning to’liq matni yoki kichik oyatlar bilan qoidalarni isbotlash; (2) Qur’oni karimning qirotlari bilan asoslash. Qur’oni karim oyatlari bilan birga ba’zi muhim mavzularning grammatik hususiyatlarini ochib berishda hadisi shariflardan ham foydalangan. «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb» asarida o’n bir o'rinda hadisi shariflar qo’llanilgan. Qur’oni karim va hadisi shariflar turli hil mavzular ichida kelgan bo’lib, ularni barcha qoidalalar sharhida ko’rish mumkin. Maqolada so’zlarning kelishigi harakatlar va harflar bilan o’zgarishini, ega va kesim munosabatlari, fe’l kesim munosabatlari, moslashmagan aniqlovchi, izohlovchi va nisbiy olmosh mavzularidagi bahsli qoidalarni yoritishda ishlatilgan Qur’on oyatlari tahvilga tortildi. Oyatlarni dalil qilib keltirishda o’rtamiyonalikka amal qilib bir qoidaga bir necha oyat keltirmasdan faqat bitta kichik oyat keltirish bilan qoidaning mohiyatini ochib bergan. Oyatlardagi va hadislardagi grammatik qoidaga dalil sifatida kelgan so’z va iboralarning lug’aviy va grammatik tahlillarini har biridan keyin izoh sifatida keltirishi mavzuning chuqur o’rganilishini ta’minlagan. Oyatlardagi ba’zi so’zlarning kelishigi qiroatlarda o’zgarishini ham ta’kidlab o’tishi o’rganuvchilar orasida tushunmovchiliklarni bartaraft qilishga hizmat qilgan. Olim asarni yozishda o’zgacha uslub ishlatib arab tilining barcha imkoniyatlaridan foydalanib yozgan bo’lsa ham uning o’rtamiyonaligini saqlab qolishga erishgan. Bu esa kitobning barcha o’rganuvchilar mos kelishini ta’minlaydi.

Foydalaniman adabiyotlar ro'yxati:

Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» O'zbekiston Respublikasi Fannlar Akademiyasi SHarqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondi qolyozma nusxasi 10518-raqam ostida saqlanadi.

- العلامة ابن يعيش.شرح المفصل في صنعة الإعراب.إدارة الطباعة المنيرية. بمصر.ص 132
 - الدكتور هانى توفيق أسعد نصر الله. شواهد القرآن النحوية. أبوظبى المكتبة الوطنية. 2010.صفحة 781
 - أبو محمد عبدالله بن أحمد جمال الدين ابن هشام. قطر الندى بيروت، لبنان. دار الكتب العلمية. 2004م.صفحة 419
 - جمال الدين محمد بن عبد الله بن عبد الله الطائي الحيانى الأندلسى.شرح تسهيل، تحقيق الدكتور عبد الرحمن السيد و الدكتور محمد بدوى المختون. القاهرة، هجر للطباعة و النشر. 1990. الجزء الأول، صفحة 406.

²⁷ Ziyovuddin Makkiy Xorazmiyning «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e-râb» 10518-raqam ostida saqlanadi

²⁸ عبد الرحمن بن محمد بن عبد الله الأنصاري، أبو البركات، كمال الدين الأنباري تحقيق محمد بهجة البيطار، أسرار العربية، مطبعة الترقى، دمشق الطبعة: 494هـ 1377هـ



5. الشيخ عبد الرحمن بن محمد القماش، الحاوي في التفسير، رأس الخيمة ، دولة الإمارات العربية المتحدة ، المكتبة الشاملة، المجلد الثاني عشر، 2012، صفة، 7163.
6. صدر الأفضل القاسم بن حسين خوارزمي، تحقيق الدكتور عبد الرحمن بن سليمان العثيمين، شرح المفصل في صنعة الإعراب بالتخمين، الجزء الثاني، دار الغرب الإسلامي، بيروت لبنان، 1990م، صفحة 432.
7. أبو البركات عبد الله بن أحمد بن محمود النسفي، تحقيق يوسف علي بدبو، مدارك التنزيل و حفائق التأويل، الجزء الثالث ، دار الكلم الطيب، بيروت، 1998م.
8. العلامة جار الله أبي القاسم محمود بن عمر الزمخشري، تحقيق الشيخ عادل أحمد عبد الموجود، الكشاف عن حفائق غوامض التنزيل و عيون الأقوال في وجوه التأويل، الجزء السادس، مكتبة العبيكان، الرياض، 1998م، صفحة 626.
9. عبد الرحمن بن محمد بن عبد الله الأنصارى، أبو البركات، كمال الدين الأنباري تحقيق محمد بهجة البيطار، أسرار العربية، مطبعة الترقى، دمشق الطبعة: 1377هـ، صفحة 494.
10. أبو الفتح ناصر الدين بن عبد السيد بن علي الشهير المطري. المصباح في علم النحو. مكتبة الشباب بالقاهرة، ص 159.
11. أبي القاسم محمود بن عمر الزمخشري، تحقيق فخر صالح قدارة. المفصل في علم العربية دار عمار -الأردن. 2003. صفحة 565.
12. لغنى. حققه و علق عليه دكتور حسني عبد الجليل يوسف. شرح الأنموذج في النحو للعلامة الزمخشري بشرح الأرديلي جمال الدين محمد بن عبد حسني عبد الجليل يوسف. مكتبة الآداب - بالقاهرة. 1999. صفحة 230.
13. الدكتور محمد أحمد قاسم، إعراب الشواهد القرآنية، المكتبة العصرية، بيروت - لبنان، 2003م، ص 218.
14. إمام جلال الدين السيوطي، همع الهوامع، الدكتور عبدالعال سالم مكرم، الجزء الأول، مؤسسة الرسالة بالكويت، 2010م، ص 358.
15. 358م، ص 358.

